

AYOL MATONATI VA PSIXOLOGIYA: ICHKI KUCH VA RESURLAR**Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna****Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi****Boltaboyeva Gavharoy Arabjon qizi****Nematjonova Nasibaxon Xusanboy qizi****ADPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabalari****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14282134>**

So'nggi asrda ayollarning ijtimoiy rollari ortib, ular ta'lim, siyosat, biznes kabi sohalarga qadam qo'ydilar; ularning iqtisodiyotdagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi.

Ayol eng avvalo, oilada – ona, sevimli rafika, mehribon uy bekasi bo'lsa, jamiyatda – shifokor, o'qituvchi, tadbirkor, rahbar kabi martabalarga ega bo'ladi. Bunga bizning mamlakatda o'zining faolligi va izlanuvchanligi bilan barchani lol qoldirayotgan shijoatli ayollarni misol qila olamiz. Masalan ayol rahbarlar.

Jamiyatimiz rahbar ayollar boshqaruvi bilan o'sib borishi bu davlatimizning rivojlanishi, uning jahon davlatlari qatorida turishiga yordam bermoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvida ularning o'rni va mavqei yanada mustahkamlash – tub islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu esa har bir oilada ayollarning o'rni, uning hurmat va mavqei yana bir karra oshiradi.

Ayol qayerda va qanday mavqeda bo'lmasin, u tarbiyachilik vazifasini bir vaqtning o'zida uddalaydi. Oilasida ko'rgan tarbiya usullarini hayotiy tajribasida qo'llaydi. Ayniqsa, farzandi axloqli, tarbiyali, ilmi bo'lishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. O'zidan ham yuksak bilimni va mavqeni egallashiga jon jahdi bilan ko'maklashadi. Shundan bo'lsa kerak, onadek mehribon va uning o'rnini bosguvchi zot yo'q.

Ayol kishining matonati, irodasi haqida juda ko'p videofilm va voqealarni eshitamizu, ba'zan bunday ayollar yonimizda, atrofimizda ham uchratishimiz mumkinligi haqida sezmay ham qolamiz. Ularning oila va jamiyatda hormay-tolmay, bugunidan mamnun bo'lib yashayotganliklari taqsigina sazovor.

Ayollardagi iroda, matonat, shijoat, sabr, qat'iyat, chuqur mulohaza, oilasi, farzandlariga cheksiz muhabbat, sadoqatli, andisha, ibo kabi xislatlar bilan ularni tabiatning o'zi siylagan. Agar ular biror vazifani oldilariga maqsad qilib qo'ysalar, natijaga erishmagunga qadar kurashadilar, o'zlarida g'ayrat topadilar.

Birgina ilmi ayollarni hayot yo'lini kuzatar ekanmiz, Kichik jussasida xattoki erkaklarda bo'lmagan ichki kuchni kuzatamiz. Ulardagi resurslarga bugungi jamiyat har doimgidan muhtoj.

Bir donishmand, "Agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojimiz bo'lsa, ayollarga buyuklik va fazilatni o'rgatingiz", deb aytgan ekan. Yaqin o'tmishdagi zamondoshimiz Abdurauf Fitrat ham "ayollarimiz – millat onalari ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur", deya o'z asarida yozib, qizlarni ilm olishga da'vat etganini tarix sahifalarida ko'rishimiz mumkin. Har bir davrda buyuk ajdodlarimiz oiladagi farzandlarning ilmi bo'lishiga pand-u nasihat qilgan. Qisqa qilib aytganda, ilm – bu ma'rifat deymiz. Jaholatni ham yuksak ilm-ma'rifatimiz bilan yengamiz. Hayotimizga kirishga urinayotgan yot g'oyalarga ham ilmga intilishlarimiz bilan o'rin qoldirmaymiz. Ilm butun hayot yo'llarimizni yoritadi.

Muqaddas dinimizda ayollarni hech qachon ilm-ma'rifatdan va jamiyat ishlaridan ajralib bir burchakda o'tirishga majbur qilmaydi. Hozirgi kundagi jamiyatimiz xususan ta'lim

maskanlarida ilm ma’rifatli diyonatli, o’z kasbini puxta egallagan, o’zi va bolalarning umrlarini zoye qilmaydigan mutaxassislariga muhtojdir!

“Biz bugun yetakchi lavozimlarda ko’rayotgan ayollar avval ta’lim olish, resurslardan foydalanish va ishga joylashish borasida imkoniyatlarga ega bo’lgan. Keling, bugungi kunda ham O’zbekistonda qizlar va yosh ayollar uchun ana shunday imkoniyatlarni yaratylik”, - dedi UNICEFning O’zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade¹.

UNICEF quyidagilarni amalga oshirishga chorlaydi:

1. Yosh ayollarga alohida e’tibor bergan holda hayotiy, texnik, innovatsion va tadbirkorlik ko’nikmalarga ega bo’lishlari uchun rasmiy va norasmiy ta’limni kuchaytirish.
2. Xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va jamoat sohalaridagi faol ishtirokini qo’llab-quvvatlash.
3. Qizlarni yosh turmushga berish va oliy ma’lumot olishga to’sqinlik qilish singari salbiy ijtimoiy me’yorlarga barham berishga qaratilgan kompaniyalarni tashkil qilish.

Demak, ayol nafaqat bugungi kundagi maqomi va jamiyatdagi obro’yi eng avvalo uning oilasidagi o’rni, oila qadriyatiga munosabati hamda farzandlari tarbiyasidagi muvaffaqiyatlariga bog’liq ekanini chuqur anglashimiz zarur. Yig’ilishda Prezidentimiz rahbari ayollarga murojaat qilib, onalar farzandlarining nafaqat tarbiyasi bilan shug’ullanishlari, uning bilimi, dunyoqarashining rivojlanishiga, ma’naviyatining yuksalishiga yanada jiddiy qarashlari kerakligi ta’kidladi. Farzandlariga yoshligidanoq tejamkorlikni, saranjom-sarishtalikni o’rgatib boradigan ham ayol, aslida. Shu o’rinda, bugungi kun o’zbek ayoli ma’rifatli, ma’naviyati yuqori, tafakkuri teran, shu bilan birga zamonamizga xos barcha ijobiy xislatlarni o’zida mujassamlashtirgan oqila va dono bo’lishlari nihoyatda zarurligi aytiladi. Chunki ayolning bilimdonligi, ma’naviyati, ma’rifati va savodxonligi – farzandining, oilasining baxtu saodatidir.

Tarbiya – egasiga qaytuvchi jarayon. Kim nimani o’zi uchun kutsa, shuni bolasiga bersin: oqibat istagan oqibat, mehr sog’ingan mehr... Bu fazilatlar ayollarga xos nazokat, hayo, samimiylik, kamtarlik, oqilalik, uddaburonlik, tadbirkorlik... bilan egasiga yetkazilar ekan u kamolotdek, vafodek o’ziga jinsdosh xislatlarni yetaklab keladi. Insoniyat yaralibdiki, shunga intiladi. Orzu qiladi. Targ’ib qiladi.

Xulosa shuki, butun dunyoda ayollar ta’limi doimiy ravishda e’tiborga muhtojdir. Sababi ayollar kelajak avlod vakillarini tarbiya qiladi. Shunday ekan, dastavval, xotin-qizlarning bilimli, ziyoli bo’lishlari uchun ularning ichki resurslaridan foydalanish va takomillashtirish darkor. Bu bilan kelajakda o’zining mustaqil fikriga ega, dunyoqarashi keng va har qanday jabhada ilg’or bo’la oladigan kelajak vakillarini tarbiya qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchramaymiz.

References:

1. “Yangi O’zbekiston oiladagi zo’ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to’plami. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 344 b.
2. Xadjimetova Dilnoza Rahimovna Ayollar ta’limini rivojlantirish: tarixi, muammolari va istiqbollari // SAI. 2024. №Special Issue 15. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ayollar-ta-limini-rivojlantirish-tarixi-muammolari-va-istiqbollari> -1 (дата обращения: 04.12.2024).

¹ <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/key-issues-with-gender-equality>

3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/key-issues-with-gender-equality>
4. <https://www.iiu.uz/index.php/oz/news/3074>

INNOVATIVE
ACADEMY